



## SURXONDARYO HUDUDIGA OID KIYIM-KECHAK VA KIYINISH BILAN BOG'LIQ DIALEKTIZMLARNING SEMANTIK TASNIF

**Eshto'xtarova Munira Bozorovna**

Surxondaryo viloyati Angor tumani 23-umumiy o'rta  
ta'lim maktabining ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Email: eshtoxtarovam@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17371316>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada areal va dialektal tadqiqotlar doirasida olib borilgan maishiy leksika masalasi, ularning tilshunoslikdagi ahamiyati va Surxondaryo viloyati hududiga oid kiyim-kechak, taqinchoq va zeb-ziyat nomlarini bildiruvchi dialektal leksikalar va ularning taraqqiyot jarayoni, etnografiyasi, ularning semantik jihatdan tasniflanishi lingvistik jihatdan tahlil qilinadi

**Kalit so'zlar:** dialekt, maishiy leksika, o'z qatlam, o'zlashgan qatlam, etnografizm, lingvomadaniy birliklar, semantika

**Abstract:** This article analyzes the issue of household lexis, their significance in linguistics, and the dialectal lexicons denoting the names of clothing, jewelry, and ornaments in the Surkhondaryo region, as well as their development process, ethnography, and semantic classification.

**Keywords:** dialect, household lexis, native layer, assimilated layer, ethnographism, linguocultural units, semantics

**Аннотация:** В статье анализируются вопросы бытовой лексики, её значение в языкознании, а также диалектные лексиконы, обозначающие названия одежды, украшений и орнаментов Сурхандарьинской области, а также процесс их развития, этнография и семантическая классификация.

**Ключевые слова:** диалект, бытовая лексика, исконный пласт, ассимилированный пласт, этнографизм, лингвокультурные единицы, семантика

Hozirgi o'zbek adabiy tilida maishiy leksika muayyan darajada qiyosiy-tarixiy, leksik-semantik jihatdan alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan bo'lib, unga uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechak, taqinchoq va zeb-ziyat nomlarini ifodalovchi til birliklari kiradi.

Surxondaryo vohasida ham maishiy leksikaga oid ko'plab misollar uchraydi. Bu so'zlarni o'zbek tilining leksik tarkibidan kelib chiqqan holda o'z qatlam va o'zlashgan qatlamga ajratib o'rganish mumkin. O'z qatlam tarkibida umumturkiy til birliklari va ulardan yasalgan o'zbekcha so'zlar mavjud bo'lib, o'zlashgan qatlamda esa arabcha, forscha, ruscha-baynalmilal so'zlar mavjud. Voha hududida bosh kiyim nomlarini ifodalovchi leksik birliklardan bir qanchasi keltirilgan bo'lib, ularni ham yuqorida aytib o'tganimizdek o'z va o'zlashgan qatlamga ajratishimiz mumkin. Xususan, hududda biz alohida yondashgan *qalpoq, telpak* so'zlari o'z qatlam leksikasi hisoblansa, kuloh, dastor, bargak, ro'mol so'zlari o'zlashgan qatlamga mansub til birligi sifatida o'rin olgan. Bu so'zlar, asosan, forscha va arabchadan o'zlashgan. Ammo bora-bora o'z qatlamdek qabul qilinib ulgurgan. Hududdagi bosh kiyim nomlarini shartli ravishda Shaira Usmonovanning "Olttoy tillarida bosh kiyim nomlari" deb nomlangan tadqiqot ishiga tayangan holda quyidagicha leksik-semantik guruhlariga ajratishni lozim topdik:

1. Boshga kiyiladigan kiyim nomlari.
2. Bosh kiyim o'rnida qo'llaniluvchi kiyim (taqinchoq, ziynat) nomlari.
3. Boshga o'raladigan kiyim nomlari.[1:2]

Hududdagi bosh kiyim maishiy leksikasini tahlil qilar ekanmiz, har bir leksema xalqning hayotini, urf-odatlarini va qadriyatlarini yoritib berishga qaratilganligining guvohi bo'lamiz. Har bir leksema o'ziga xos ma'no tashishga va o'sha davr hayotini batafsil ochib berishga xizmat qilmoqda. Tahlillarimiz davomida hududda uchraydigan bosh kiyim nomlari faqat leksik birlik sifatida emas, balki milliy o'zligimizni anglash, xalqimizning qadimiy urf-odatlarini, turmush tarzi va uning madaniy hayotini ifodalashga xizmat qiladi.

*Kiygich* – boshga salladan oldin kiyiladigan qalin qilib qavilgan chirozli orqa tomonida 15-20 sm enlikdagi belgacha tushadigan yassi ulamasi bor bosh kiyim

*Kiygich* – kekxa ayollar kiyadigan maxsus do'ppi. Ko'pincha baxmaldan dumaloq shaklda tikiladi. Orqa tomonidan soch solib qo'yilishi uchun to'g'ri to'rtburchak, quvursimon shaklda material qo'shib tikiladi.

*Guldo'zi* – baxmalga gul tikilgan erkaklar do'ppisi.

*Derlik* – popok ostidan kiyiladigan yupqa do'ppi.

*Nozipeshana* – do'ppining ustidan bog'lanadigan kichik hajmdagi ro'mol turi.

*Kurtta* – yoshi o'tgan ayollar boshiga yopinib yuradigan astarsiz, chachvonsiz, paranji o'rnida ishlatadigan yopinchiq. Ko'pincha beqasamdan tikiladi.

*Qiyiq* – to'rtburchak shakldagi oq dokadan tayyorlangan ro'mol.

Maishiy leksika so'zlashuv jarayonining eng muhim va faol qatlami sifatida kundalik turmush bilan bog'liq so'zlarni o'z ichiga oladi. Ayni shu jihat maishiy leksikaning til leksik sathidagi birlamchi ahamiyatini ta'kidlashga xizmat qiladi. Bu esa maishiy leksikadagi bo'shliqlarning to'ldirilishini yanada dolzarblashtiradi. Zero, eng zaruriy, hayotiy tushunchalarning nomlanmaganligi til egalarining axborot almashinuv jarayonida muayyan noqulayliklarni yuzaga keltiradi. Adabiy tildagi maishiy leksikaga oid bo'shliqlarni to'ldirish bu boradagi kamchiliklarni bartaraf etish bilan birga adabiy tilning kundalik so'zlashuv nutqi bilan uzviyligini, xalqchilligini yuksaltirishga ham xizmat qiladi.

Kiyim-kechak inson tanasini tashqi ta'sirlardan muhofaza etuvchi, tashqi ko'rinishini ko'rkamlashtiruvchi vosita sifatida muhim hayotiy ahamiyatga ega. Shu bois ham ular bilan bog'liq tushunchalar inson tili va tafakkurida ko'p bora murojaat qilinuvchi tushunchalar sifatida qaraladi.

O'zbek adabiy tilda ko'pgina kiyim turlari va ularning qismlarini nomlovchi so'zlar mavjud, ular kundalik nutqda faol qo'llaniladigan so'zlar sifatida baholanadi. Shuning barobarida, adabiy til leksikasida kiyim va kiyinish bilan bog'liq ayrim lug'aviy birliklar mavjudligini ham inkor etib bo'lmaydi.

Kiyim va kiyinish bilan bog'liq har bir tushuncha azaldan muhim hisoblangan va xalq shevalarida ularning aksariyati to'liq nomlangan. Bu esa shevalardagi mazkur so'zlarning adabiy tildagi shu sohaga oid lingvistik birlikni to'ldirishda katta imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

N.Kurbanazarova o'z tadqiqotida Surxondaryo vohasiga oid dialektal etnografizmlar haqida ma'lumot berib o'tar ekan, aynan maishiy leksikaga ham to'xtalgan: "Surxon elida qadimdan asosan chorvachilik bilan shug'ullanuvchi xalqlar istiqomat qilgan. Shuning uchun

asosiy marosim, urf-odat va an'analari bevosita chorvachilik, chorva mahsulotlari bilan bog'liq. Bu odatlarning vujudga kelishida konseptual asos aynan chorvachilikka oid. Tarixda qiz uzatadigan oilalarda qizning sepiga qo'shiladigan va albatta berilishi kerak bo'lgan uy-ro'zg'or buyumlari mavjud bo'lib, ular asosan jundan tayyorlangan. Bugungi kunda bu tushunchalar chegaralangan kichik hududlardagina saqlanib qolgan. Qadimda kelinning sepiga qo'shib yuboriladigan quyidagi buyumlar bugungi kunda deyarli ishlatilmaydi. Biroq, ularni nomlovchi so'zlar o'zbek tilining mulki sifatida saqlanishi lozim. Chunki bu so'zlar orqali ham xalqimizning orzu-havaslarini, turmush tarzi ifodalangan. Shaharlashish, zamonaviylashish barobarida qo'llanilish doirasi torayib, eskirgan-dialektal etnografizm hisoblanib qolgan bunday lingvomadaniy birliklarga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

*Chepkan* – qo'y yoki tuyaning junidan tayyorlangan ustki kiyim. Kelin o'z ota uyidan chiqib ketayotgan paytda kuyovga kiydirilgan. Asosan otda, eshakda mol boqib, uzoq vaqt tog'da yuradigan yigitlar uchun moslashtirilgan bo'lib, juda issiq tutgan. Namni o'ziga tortimagan. Yomg'ir, qor suvi sirg'alib pastga oqib ketavergan. Bu birinchi navbatda bo'lajak kuyovning sog'ligiga e'tibor ramzi hisoblansa, ikkinchidan kuyovning (albatta qizi shu yigitga turmushga chiqqandan keyin unga ham tegishli bo'ladi) qo'ylari ko'p bo'lib, shu chepkanni kiyib yursin degan ma'no ham ifodalagan".[2:114]

*Latiba* – ayollar burniga taqadigan taqinchoq.

*Xapamat* – ayollar turli rangdagi munchoqlardan yassi, uchburchak, uzunligi 20-30 sm bo'lgan bo'yinga taqiladigan taqinchoq.

*Tomoqlov* – xapamatning ustidan taqiladigan taqinchoq.

*Beshoyoq* – har birida 5tadan bezak osilib turadigan qimmatbaho metallardan tayyorlangan sirg'a.

*Qada, to'qqizlik, kiyit* – sarpo.

*Shapo'sh* – do'ppi.

*Bo'g'jama* – to'yga atalgan sarpolar

*Qo'ng'iltiq kiyish* – mo'kkini paytavasiz kiyish

*Ichchik* – yengsiz nimcha

Surxondaryo viloyati sheva vakillarining an'anaviy kiyimlari moddiy madaniyatning bir qismini tashkil etib, o'zbek xalqining milliy xususiyatlari, urf-odatlari hamda estetik didini namoyon etgan. O'zbek xalqining ananaviy kiyimlari boshqa millat kiyimlaridan o'ziga xos tomonlari bilan ajralib turadi. Boshqa xalq kiyimlari singari o'zbek xalq ananaviy kiyimlari uzoq tarixiy jarayonlar davomida, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hamda urf-odat, marosim, ananalar tasirida davrlar o'tishi davomida o'ziga xos xususiyatda shakllanib, rivojlanib kelgan.

Umuman olganda Surxon aholisining an'anaviy kiyimlari va taqinchoqlari o'zbek maishiy moddiy-ma'naviy madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, o'zida milliy xususiyatlarni jipslashtirgan. Surxon vohasida hunarmandchilik, ayniqsa, an'anaviy tikish-bichish, zardo'zlik, poyafzal va ko'nchilik ancha yaxshi rivojlanib o'zining betakror namunalarini avlodlardan-avlodlarga saqlab kelgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Усмонова Ш. Олтой тилларида бош кийим номлари. – "Central Asian Studies" jurnali, 2008.



2. Курбаназарова Н.Ш. Сурхондарё тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвомаданий тадқиқи. Фил. фан. бўйича фалс. док. – Термиз, 2021. – Б. 114.
3. Қамбаров Ғ. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши (шахслараро муносабат асосида): Филол. фанлари номзоди... дис. – Тошкент, 2008. – Б. 116.
4. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент: Ўз ССР ФА нашриёти, 1962.
5. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro'z, 2016. – B. 78.
6. Асомиддинова М. Кийим-кечак номлари. – Тошкент: Фан, 1981.
7. Internet manbalari